

60710100-kimyoviy texnologiya

bakalavriat ta'lim yo'nalishi

60710100-Kimyoviy texnologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'limshakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

60710100-Kimyoviy texnologiya ta'lim yo'nalishi fan va texnika sohasidagi yo'nalish bo'lib, kimyoviy texnologiyasi bo'yicha ishlab chiqarish, qayta ishlash, tadqiq qilishga yo'naltirilgan vositalar, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va jixozlarni tatbiq etish, zamonaviy va xavfsiz ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- organik sintez mahsulotlar olish texnologik jarayonlari va jihozlari;
- organik sintez mahsulotlari sifati, texnologik jixozlarining konstruksiyalari;
- organik sintez mahsulotlarini qayta ishlashda avtomatik qurilmalari va kompyuter tizimlari;
- organik sintez mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari loyihalari;
- organik sintez mahsulotlarini qayta ishlashda startap loyihalari;
- organik sintez mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari iqtisodiyoti va menejmenti;

-kimyoviy materiallar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xom ashyo va materiallar, kimyoviy materiallar ishlab chiqarish texnologiyalari va jihozlari, mineral kislota, ishqorlar, kaltsinatsiyalangan soda, soda mahsulotlari, bog'langan azot birikmalari, ammiak, mineral o'g'itlar, murakkab va kompleks o'g'itlar, katalizatorlar va adsorbentlar, sintetik yuvish vositalari ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari va jixozlari;

- organik sintezda qo'llaniladigan xom-ashyo va materiallar, ularning fizik-mexanik, kimyoviy va ekspluatatsion xossalari;

- silikat materiallar va buyumlar turlari, ularning fizik-mexanik, kimyoviy va ekspluatatsion xossalari;

- silikat materiallar va buyumlar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xom ashyo va materiallar;

- silikat materiallar va buyumlarni ishlab chiqarish texnologiyalari va jihozlari;

- silikat materiallar va buyumlar, ularning klassifikatsiyasi, sifati texnologik jarayonlari va qurilmalari.